

PROSPECTIVE DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PRIMARY PREPARATION AT THE MODERN LEVEL

Rahmonberganov Akmal Ganijon Ogli

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,

Faculty of Military Education, Stage 2 Student.

Akmalrahmonberganov777@Gmail.Com

Mirzahamdamov UlugBek Adahamovich

Teacher of Military Education Faculty of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,

Umirzakhdamov65@Gmail.Com

Annotation: In our society, the Armed Forces remain the lifeblood of the people, the guarantee of the country's independence, its territorial integrity, peaceful life and creative work, a great school of spiritual and moral education of youth. This article discusses the results of the ongoing pre-conscription reforms in our country and measures to further improve them.

Keywords: Separatism, Vatanparvar, anti-aircraft missiles, conscription, local wars, defense doctrine

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIKNI ZAMONAVIY BOSQICHDA RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Rahmonberganov Akmal G'anjon O'g'Li

Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Univeristeti Harbiy Ta'lif Fakulteti 2-Bosqich Talabasi.

Akmalrahmonberganov777@Gmail.Com

Mirzaxamdamov Ulug'Bek Adaxamovich

Nizomiy Nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining Harbiy Ta'lif Fakulteti o'qituvchisi,
Umirzakhdamov65@Gmail.Com

Annotatsiya: Bizning jamiyatimizda Qurolli Kuchlar xalqning jon-tani, mamlakat mustaqilligi, uning hududiy yaxlitligi, tinch hayoti va yaratuvchanlik mehnatining kafolati, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning katta maktabi bo'lib qolaveradi. Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samaralari va uni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Separatchilik, «Vatanparvar» tashkiloti, zenit-raketa, muddatli harbiy xizmatni, lokal urushlarni, mudofaa doktrinasi.

O'zbek xalqining asriy orzusi ushlanib, mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri- mustaqil O'zbekistonning mudofaasini mustaxkamlash va milliy havfsizligini ta'minlashga qaratildi.

Bugungi kunda fanning eng yaxshi ixtirolari harbiy sohada tez qo'llanishi va taraqqiyotning yuksak darajada rivojlanganligi sharoitida, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash ishlarning ahamiyati o'z-o'zidan oshib bormoqda. Xalqaro terrorizmning, separatchilik harakatlarining ko'p davlatlarda avj olishi, global urush xavfi bartaraf bo'lib lokal urushlarni paydo bo'lishi askarning ruhiy, jismoniy va maxsus tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yamoqda. Undan turli xolatlarda o'zini munosib tuta olishni va tezlik bilan vaziyatni to'g'ri baholay olishni, hamda eng to'g'ri qarorni qabul qila olishni, o'z harakatlarini bo'linma harakatlari bilan moslashtira olishni talab qilmoqda. Yangi texnika vositalari jangovar harakatlar olib borish xususiyati va uslublarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu hozirgi sharoitda jangovar mashinalarda, tanklarda, samolyot

shturvallarida, zenit-raketa komplekslarda harbiy va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar bo‘lishi kerak deganidir.

Yoshlarning chaqiriqqacha tayyorgarligiga umumiylar rahbarlik va nazorat O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga va Mudofaa Vazirining harbiy ta’lim boshqarmasiga yuklatilgan. Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikning nazorati O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Birlashgan shtabi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi, xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi,

«Vatanparvar» tashkilotining Markaziy kengashi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning rejalarini asosida olib boriladi.

Armiya davlat mexanizmlaridan biri bo‘lib, ko‘p tomonlama davlatning taqdirini, ichki barqarorligini, hozirgi zamondagi o‘rnini va rolini belgilaydi. Qurolli Kuchlar davlat hududiy yaxlitligini va uning fuqorolarini tinch hayotini ta’minlaydi. Harbiy sohadagi islohatlar shart-sharoitlarida Qurolli Kuchlar yangi sifat kasb etmoqda. Armiyamizda tuzilmaviy o‘zgarishlar o‘tkazilib, harbiy doktrina mudofaa yo‘nalishiga va uning rivojlanishi sifat va aqliy ustuvorliklar asosida shakllantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan bugun har bir Vatanimiz jangchisidan aniq ish, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi, o‘zining jangchilik burchini vijdonan bajarishini, va shaxsiy ma’suliyat talab etiladi. Jangovar shaylikni yuqori darajada ushlab turish, jangchilik mahoratni takomillashtirish, tartib va intizomni mustahkamlash har bir askarning mamlakat mudofaa qudratini ta’minlashdagi ulushi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldidagi yuksak va ma’suliyatlari vazifalarni sog‘lom, jismonan baquvvat va chidamli, aqlan shakllangan, yuksak ma’naviy-jangovar sifatlarga ega, Vatan himoyasi yo‘lida vatanparvarlik va fuqarovi yurchini bajarishga tayyor kishigina uddalay oladi. Armiya sharoitida askarning jismoniy, aqliy va ma’naviy sifatlarini harbiy xizmat jarayonida samarali qo‘llay olishida ko‘p jihatdan chaqiruvga qadar va chaqiriq yoshidagi o‘smirlarni tayyorgarligining samaradorligiga bog‘liq. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iymon—e’tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali ma’naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta’lim o‘chog‘larining aloxida o‘rnibor».

CHAQIRUVGA qadar boshlang‘ich tayyorgarlikning asosiy yo‘nalishlari o‘sib kelayotgan avlodni jismoniy, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik va davlat mudofaasi hamda mehnatiga shay holda turish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

1992-yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Mudofaa to‘g‘risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi, «Muqobil xizmat to‘g‘risida»gi Qonunlarni qabul qildi va shu kuni «Harbiy qasamyod» matni ham tasdiqlandi. Qurolli Kuchlar qurilishining huquqiy bazasini yaratishning birinchi bosqichi 1995-yil 30-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I chaqiriq III sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasini qabul qilish bilan yakunlandi. Doktrina harbiy qurilishning yo‘nalishini, mamlakat va Qurolli Kuchlarning urushga tayyorgarlik, urush olib borish yo‘llarini belgilovchi rasmiy qarashlar va qoidalar tizimidir. U davlatning siyosiy rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi va uning asosiy yo‘nalishlari, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti fan yutuqlari darajasi, ehtimoli tug‘ilayotgan urush haqidagi tasavvurlar bilan bog‘liqdir¹.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy qomusi bo‘lmish Konstitutsiyada mudofaa, xavfsizlik va harbiy xizmatga taalluqlilik asoslari bir necha moddalarda va XXVI bobda ravshan ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllantirishning ilk bosqichi yakunlanishi 1992-yil 8-dekabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasiga to‘g‘ri keldi. Bu sessiyada davlatimizning Asosiy Qonuni — O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu qomus Qurolli Kuchlarning mamlakatdagi huquqiy holatini mustahkamlagan, uning bosh vazifalari va tarixiy burchini belgilab bergen asosiy qonun bo‘ldi.

Konstitutsianing XXVI bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag‘ishlanadi. Uning 125-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi», deb belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasiga binoan, «O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish — O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir», deb ta’kidlanadi. Mustaqillik e’lon qilingan ilk

¹ H. Jo’rayev. Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash. T., «Sharq», 2004.

kunlardanoq O'zbekiston Respublikasi davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakatda va Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga katta e'tibor qaratilgan. Ushbu masalani mamlakat mudofaa qudratini, uning milliy xavfsizligini ishonchli ta'minlash shartlaridagina hal qilish mumkin bo'lib, unga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va harbiy xarakterdagi tadbirlar tizimidagi yagona davlat siyosatini yurgizish orqali erishiladi. Ushbu tadbirlarni o'zida jamlagan hujjat 1995-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan harbiy doktrina hisoblanadi. Shunday qilib, amaliyatda birinchi marta tashkil topganligining to'rtinchi yilida yosh mustaqil davlat o'zining ilmiy asoslangan harbiy doktrinasiga ega bo'ldi.

XX asrning so'nggi besh yilligi davrida dunyoda, mintaqada va mamlakatda ro'y bergan geosiyosiy vaziyat hisobga olinib, amaldagi harbiy doktrina rivojlantirilib borildi va 2000-yildan boshlab, mudofaa doktrinasi sifatida amaliyatga kiritildi. O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi — umum davlat ahamiyatiga molik yirik hujjat. U davlat strategiyasining muhim qismi bo'lib, harbiy siyosat asosida, harbiy faoliyat hamda harbiy qurilishning yo'nalishi va harbiy kadrlar uchun majburiy hisoblangan harbiy nazariya va amaliyotining asosiy, yetakchi, rasman qabul qilingan qarashlari va qoidalarini aks ettiradi.

O'zbekistonning mudofaa doktrinasi Markaziy Osiyo mintaqasida hozirgi harbiy-siyosiy holat, harbiy xavfning yashirin turdag'i manbalari, bosh harbiy strategik vazifalar, qurilish tamoyillari va Qurolli Kuchlarni qo'llash shartlari, Qurolli Kuchlar, xalq hamda mamlakatni mudofaaga tayyorlash masalalarini o'z ichiga olgan. Mudofaa doktrinasining ushu tamoyillari mudofaa masalalarini tushunish va hal qilishga nisbatan qarashlarning birdamligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi uch asosiy bo'limdan iborat:

I. Umumiyy qoidalar.

II. Doktrinaning siyosiy jihatlari.

III. Doktrinaning harbiy-tashkiliy jihatlari.

Mudofaa doktrinasining asosiy ustunliklari quyidagicha: siyosiy nuqtayi nazardan «urush va harbiy tajovuzni bartaraf etish — bosh strategik yo'nalishdir», degan qoidaning mavjudligi.«Umumiyy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonunning 12—17-moddalarida fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash xususida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarida, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va shuningdek, boshqa mutasaddi vazirliklar hamda tashkilotlarning bu borada olib borishlari lozim bo'lgan ishlarni ko'rsatib o'tadi. Qonunning 13-moddasida mazkur fan majburiy ekanligi hamda bu o'rta ta'lim muassasasi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan o'quvchilarga qaysi bosqichlarda o'tilishi, shuningdek, bu fanning mamlakat xavfsizligi, aholining barqaror hayot kechirishini ta'minlash maqsadida o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar uchun mahalliy hokimiyatlar tomonidan mudofaa-sport-sog'lomlashtirish lagerlarini tashkil etish qayd etib o'tilgan.

Bugun har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan davlat siyosatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tegishli tavsiyanomasiga ega bo'lgan abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda 50 % lik imtiyozga ega bo'ladilar.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 4-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 31-maydag'i «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaroriga o'zgartishlar kiritish haqida»gi Qarori ayni yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning amaliy ifodasi bo'ldi. Muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan fuqarolarga berilayotgan bunday imtiyozlar yoshlarmiz o'rtasida harbiy xizmat nufuzini yanada yuksaltirishda, harbiy xizmat davomida puxta bilim va tayyorgarlikni egallashlarida ular uchun alohida rag'batlantiruvchi omil bo'lishi shubhasiz.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. I.A. Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Ö., «O'zbekiston», 1992.
2. Öemur tuzuklari. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy Nizomlari. Ö., «O'zbekiston», 1996.
4. G.M. Öansiqboyeva. Xalqaro gumanitar huquq. Ö., 2000.
5. F.A. Abdullayev, E.X. Rasulev, A.R. Rahmonov. Qurolli to'qnashuvlar huquqi. Ö., «Adolat», 2001.
6. Ö. Hakimov. Xalqaro gumanitar huquq. O'quv qo'llanma. Ö., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
7. H. Jo'rayev. Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash. T., «Sharq», 2004.